

“ALPOMISH” DOSTONI VARIANTLARIDA EPIK FORMULALAR

Sa’dullayeva Maxliyo A’zam qizi

Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi II bosqich magistranti

Annotatsiya. *Maqolada “Alpomish” dostoni variantlarida epik formulalar haqida so‘z yuritilgan. Asosiy manba sifatida Umir baxshi Safarov varianti olingan.*

Kalit so‘zlar. *“Alpomish” dostoni, folklorshunos Bahodir Xolmurodov, dostonchilik maktablari, epik formula, badihago‘ylik, janr, doston, folklorshunos olim, baxshi.*

Annotation. *The article talks about epic formulas in the variants of the “Alpomish” epic. The version of Umir bakhshi Safarov was taken as the main source.*

Keywords. *Epic “Alpomish”, folklorist Bahodir Kholmurodov, epic schools, epic formula, artistry, genre, epic, folklorist scholar, bakhshi.*

Xalqimizning uzoq o‘tmish hayoti, urf-odatlar va tasavvurlari haqida ma’lum badiiy zavq uyg‘otadi. Bu kabi xususiyatlar epik formulalarning an’anaviy dostonlar matnidagi bir ko‘rinishi bo‘lsa, ikkinchidan, nazmiy misralarning goh boshida, goh o‘rtasida kelib doston tasvirida ifoda etilayotgan voqelikka badiiy o‘ziga xoslik bag‘ishlaydi. Banddagi misralarni bir-biriga ulashda muhim o‘rin tutadi va baxshining badihago‘ylikka imkon yaratadi. Dostonchilikdagi badihago‘ylik darajasi poetik maktablarga xos xususiyatlar bilan ham belgilanadi. Shu sababdan ustoz baxshilar tomonidan shogird tayyorlashda epik formulalarni yodlatishga alohida e’tibor berilgan. Dostonlarning ustozdan shogirdga og‘zaki asosda yetib kelgan variantlarida an’anaviy epik formulalarni qo‘llash usuli ustunlik qiladi.

Epik formulalarning umumo‘zbek dostonchiligida qo‘llangan “Xazon urning bog‘da gullar so‘ldimi, So‘lgan gulga bulbul kelib qo‘ndimi”, “Ot chopsa gumbirlar tog‘ning darasi, Botirni ingratar nayza yarasi”, “Uchqur eding qanotingdan qayrilding, “Yugruk bo‘lsang, tuyog‘ingdan toyrilding”, “Oshiqning fahmidir qorong‘i kecha”, “Bahorda ochilgan bog‘ning gulisan”, “Qizil gul ochilar g‘unchadan g‘uncha” va boshqa shu kabi an’anaviy qaytariq misralarning umumo‘zbek dostonchiligida qo‘llanilgan ko‘rinishi Janubiy O‘zbekiston baxshilari ijrosida ham qo‘llansa-da, ammo bu voha baxshilari repertuarida alohida, ko‘p qaytariladigan epik formulalar bor. “Baland tovlarda buktar qor”, “Oy nechaga, nechaga, Qarang qorong‘u kechaga”, “Holsirab labi qotadi”, “Bunday otni so‘rganim”, “Osmonda uchgan qaldirg‘och, Uchganda qanoti qiyg‘och”, “Bulbul qushlarning chechasi”, “Oq sovut to‘nning jog‘asi”, “Qizil gullar so‘lmasin”, “Oqar daryoning oqishi” kabi epik formulalar bandlardagi qofiya, vaznga qarab o‘zgara boradi. Bunday qaytariq misralar voqeahodisalar, qahramon ruhiyatidagi jarayonlarni ifodalashda muhim badiiylik kasb etishi bilan bir qatorda uning tarixiy ildizida, ma‘no mohiyatida xalqimizning qadimiy falsafiy qarashlari aks ettirilgan. Janubiy O‘zbekiston vakili bo‘lmish Abdunazar Poyonovning “Alpomish”

variantida to'ya bafarzandlikdan izza bo'lgan aka-ukalarning bir-biriga aytgan suhbatida quyidagi an'anaviy qaytariq holiga aylanib qolgan misralarni uchratamiz:

Inson ko'rki nomus bilan or ekan,
G'amli qulga keng dunyosi tor ekan. ...
Bo'z qarchig'ay qo'na olmas chegasiz,
Ot beli berkimas ayil to'g'asiz.⁴¹

Ushbu misralardagi sifatlashlar orqali izza bo'lgan ikki aka-ukaning holati, nomus va orni himoya qilishga oid qahramonlarga xos jihati namoyon bo'lgan. Ichki kechinmalarni ifodalashda an'anaviy bo'z qarchig'ay, ayilli va to'g'ali ot kabi timsollar qo'llanilganki, bular chorvador xalqning hayoti bilan uzviy bog'liqdir. Tasvir jarayonidagi g'amli qul va inson ko'rki kabi holatlar poetik ifodadagi oddiy ko'chimg'larga asoslangan badiiy xususiyatlarining zohiriy ma'nosi bo'lib, botiniy jihatdan olib qaralganda, diniy qarashlarga borib taqaladi. Insonning ko'rki – farzand. Farzandni esa Alloh berguvchi. Boybo'ri va Boysari qul – Allohga qul. Tadqiqotimiz bosh manbasi Umir baxshi Safarov variantiad esa bu holat biroz farqli o'laroq, quyidagicha keltiriladi:

“... Qadim zamonda Boysun tomonda o'zbek xalqlaridan qo'ng'irot urug'idan Boybo'ri va Boysari degan aka-uka o'tgan edi. Boybo'ri, Boysarining otasini Davanbiy der edilar. Davanbiyning otasini Alponbiy der edilar. Akasi Boybo'ri, ukasi Boysarilar chorvadorlar edi. Ikkovi ham boy kishilar edi, Qo'ng'irotni[ng] e'tiborli boshliqlari edi.

Ikkovining o'g'il-qizi bo'lmaganligi uchun, to'ylarda, ma'arakamajlislarda har xil gaplardan xafa bo'lib, ikkovi ovga chiqib ketdi, ov qilaverdi. Bir erda Boysari bir kiyikni ko'rdi. Boysari buni Boybo'riga ko'rsatdi. Boybo'ri:

– Ukam, sen o'zing ot, ko'zing o'tkirroq ham epchilsan, – dedi.

Boysari o'zini otdan taylab, otni bir qoziqqa boylab, miltiqqa bir o'qni joylab, shu kiyikni poylab, pana joydan mo'ralab, chalov butalarni oralab, kiyikning dushpati miltiqni o'qlab, piltani cho'qlab, dagakka dori qotirib, piltani cho'qqa botirib, kiyikka miltiqni yotqirib, ko'kragiga miltiqni qoplab, chakkasiga tutib japliy kiyikka tutib choqlab, otmoqchi bo'lib qarovlanib tiklab turgan vaqti edi. Qarasa, kiyik bo'g'oz, elini bor ekan. Miltig'idan o'q otmadi, qaytarib oldi. Kiyik qirdan oshib, cho'lga ketdi.

Boybo'ri aytdi:

– Ukam, nima uchun kiyikni otmading?

Boysari aytdi:

– Aka, kiyik bo'g'oz, elini to'lgan ekan, shuning uchun, “bolalari ham hayf bo'lmasin”, deb otmadim. Kelingizning gumonasi bor, shuning uchun kiyikni otmadim. Boybo'ri xursand bo'lib, ukasini yoniga chaqirdi. Ukasi kelib o'tirdi.

Boybo'ri aytdi:

⁴¹ Алпомиш. Айтувчи Абдуназар Поёнов. Нашрга тайёрловчилар: Жаббор Эшонкулов, Рўзимурод Чориев. – Тошкент, “Академнашр”, 2018, Б-19

– Mening ham eshituvim bo‘yicha, chechangning ham gumonasi borday, kel, endi bu cho‘lda ikkimiz yaxshi niyat qilaylik, uka, endi shu vaqtgacha yurdik, turdik, hamma narsani ko‘rdik, davrni surdik, oqibat ikkovimizning armonimiz o‘g‘il-qiz bo‘lsa, kamchiligimiz yo‘q. Endi sening ayoling o‘g‘il tug‘sa, mening ayolim qiz tug‘sa, ikkovimiz quda bo‘laylik, ikkovi ham, qiz bo‘lsa, bir-biriga do‘st bo‘lsin, o‘g‘il bo‘lsa ham, do‘st bo‘lsin, agar birimizniki o‘g‘il, birimizniki qiz bo‘lsa, haligi shartdan qaytgan pes bo‘lsin, – dedi.

BOYSARI

– Aka to‘g‘ri, shu gapimiz-gap, so‘zimiz-so‘z, – deb fotiha qilib, turib otlanib ketdi.”⁴²

Ko‘rinib turibdiki, Umir baxshi Safarov variantida jarayon biroz boshqacharoq, ya‘ni ular farzandlari bo‘lmaganligi sababli to‘y-ma‘raka, majlislardan qochib, ko‘proq ov bilan shug‘ullanishadi, shunday kunlarning birida cho‘lda bir kiyikni ovlashmoqchi bo‘lishadi, biroq Boysari kiyikni bo‘g‘ozligi uchun otmaydi, shunda aka-uka xotinlarida gumona borligini aytishadi va oradan vaqt o‘tib, Boybo‘rining ayoli o‘g‘il, Boysarining ayoli 3 oydan so‘ng qiz farzand ko‘radi. Cho‘lda qilgan niyatlari quda bo‘lishga kelishishadi, shartdan qaytganni pes bo‘lsin deyishadi.

Fozil Yo‘ldosh variantidagi ushbu holatni ifodalovchi Boysarining “Tortib olib bo‘lmasa, o‘g‘irlab olib bo‘lmasa, sotib olib bo‘lmasa, Xudo bizga bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?!⁴³ kabi so‘zlarini, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini mazkur variantda birgina ramziy ma‘no “G‘amli qul” iborasi bilan ifodalanishi dostonga yuksak badiiylik bag‘ishlaydi.

Ramzlarning badiiy xususiyatlarini sharhlashga harakat qilar ekan N.Rubsov, jumladan, shunday deydi: “Ramz, – bu hamma payt obraz. U hech qachon muayyan birgina ma‘no bilan tenglashtirilishi mumkin emas, u hamma vaqt imkoniyatlar, ma‘nolar istiqbolining yelpig‘ichidir. Ramzning bunday imkoniyatlar yelpig‘ichi ko‘pincha parodaksal tarzda qarama-qarshi tomonlarni bog‘laydi: ayni tabiatiga ko‘ra mutlaqo boshqacha bo‘lgan hodisalarni ifodalay boshlaydi”.⁴⁴ Dostonda qo‘llanilayotgan epik formulalarning barchasi ramziy xarakterga ega. “Alpomish” qahramonlik dostoni. Dostonda epik formulalarning qahramonlarga xos jihatlarining qo‘llanilishi dostonning badiiy yukini oshirishga xizmat qilgan. Abdunazar baxshi yilboshi – Navro‘z bayramida botirlarning har xil o‘yinlarda bir-biri bilan kurashishi tasvirida “Merganlar ovlar qoplonni”⁴⁵ jumlasidan foydalangan. Dostonda ovga qiziqish, ov bilan bog‘liq o‘rinlar mavjud. Doston boshlanmasida ham ov motiviga duch kelamiz. Hayvonlar orasida eng kuchlilaridan biri qoplondir. Qoplonni ovlash uchun esa kuchli mergan bo‘lish lozim. Baxshi Alpomishning o‘yinlarda g‘olib kelishi ta‘rifini aytishda aynan shu epik formuladan foydalanishi matn va

⁴² Alpomish. Doston. Aytuvchilar U.Safarov, M.Avliyoqul o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchilar: T.Mirzayev, J. Eshonqulov. – T.: “Akademnashr”, 18-bet.

⁴³ Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари, 1-жилд. Алпомиш. Айтувчи Фозил Ўлдош ўғли, 25-бет.

⁴⁴ Рубсов Н.Н. Символ в искусстве и жизни. Москва., 1991. стр-176

⁴⁵ Алпомиш. Айтувчи Абдуназар Поёнов. Нашрга тайёрловчилар: Жаббор Эшонқулов, Рўзимурод Чориев. – Тошкент, “Академнашр”, 2018, Б-43.

mazmun uyg'unligiga olib keladi. Boybo'ri zakotchilarni Boysariga jo'natayotgan lavhasida ham bu jihat yaqqol namoyon bo'ladi.

Suluv qizlar ko'zga qo'yar surmani,
Lo'lilar kiyar beli burmani,
Juyruk odam ko'p aytadi termeni,
Yaxshi so'z bo'ladi dardning darmoni,
Shohning bo'ldi bugun ahd-u paymoni.
So'zlarimga quloq soling, choparlar,
Sizga shunday Boybo'rining farmoni.⁴⁶

Baxshi dostonidagi kayfiyatni an'anaviy obrazlar va tayyor misralar orqali yangi vaziyat, yangi sharoitga mos bo'yoqlarda shu qadar o'rinli tushirganki, natijada o'ziga xos originallik kasb etgan. Keltirilgan yetti misraning atigi uch satrining muayyan qismlarini Abdunazar baxshi yozgan. Qolgan to'rt misra an'anaviy dostonlarda mavjud. Biroq bu misralar xuddi shunday kombinatsiyada biror dostonida uchramaydi. Bunda badihago'ylikning yana bir xususiyati namoyon bo'lgan, ya'ni badihago'ylik an'anaviy zaminda, tayyor obraz va ifodalar yordamida har gal yangi satr va parchalarni o'qib keta olish mahoratigina emas, balki doston badiiy matni qismlari – epik formulalarni o'z o'rnida qo'llay bilish san'ati hamdir.⁴⁷

Umir baxshi Safarov variantida ushbu holat ham tamomila o'zgacha tus olgan:

“... Kundan kun, oydan oy o'tdi. Hakim bilan Oybachin olti yoshda bo'lishdi. Hakim – o'zi olti yoshda bo'lsa ham, suyagi yirik alp bola edi. Shuning uchun uning otini el ichida Alpomish deb yuritdilar.

Olti yoshda ikkovini ota-enalari maktabga qo'ydi. Ikkovi birga-birga maktabda o'qib, yetti yoshga qadam qo'ydi.

Alpomish o'g'il bola emasmi, biroz sho'xroq edi. Oybachin bilan hazillashib, Alpomish Oybachinni bir shapati urdi. Oybachin ham erka qiz emasmi, yig'lab uyiga, enasiga bordi. Oytug'mish yig'lab borgan qizini ko'rib, joyidan irg'ib turib:

– Qizim, sensan rizqi-ro'zim, gavhardan tiniq ko'zim, tasadduqman senga o'zim, aytishing menga lozim, nima uchun xafa bo'lib yig'lab kelding? – deb so'radi. Oybachin erka qiz-da, enasiga:

– Alpomish mening chakkamga urdi, turtkilab, har kuni qo'ymaydi, – dedi. Oytug'mish ham og'zi katta, gapini qaytarmagan boybicha emasmi, qora uydan tashqari chiqib, Alpomishga qarab:

– Tanasi – tentak, kallasi – katta kalpang juvonmarg, nima uchun mening qizimni har kuni turtkilab urasan? Sening zamoningda ham bolalar tinch yuradimi yoki yurmaydimi? –

⁴⁶ Алпомиш. Айтувчи Абдуназар Поёнов. Нашрга тайёрловчилар: Жаббор Эшонқулов, Рўзимурод Чориев.— Тошкент, “Академнашр”, 2018, 61 б

⁴⁷ Халқ оғзаки ижодида эпик формула ва бахшининг ижро маҳорати. Холмуродов. Б. Диссертатсия, Тошкент, 2017, 16-бет

deb baland ovoz bilan qarg'andi. Alpomishning enasi Kuntug'mish ham bu gapni eshitgandan keyin qora uydan chiqib, ovsini Oytug'mishga qarab bir so'z dedi:

– Hu, og'zi katta boybicha, nima deyapsan? Og'zingdan chiqqan gapni qulog'ing eshityaptimi? Sarg'aytib nurli yuzimni, ko'zga ilmaysan o'zimni, dunyoda ko'rgan rizqi-ro'zimni, nima uchun qarg'aysan yolg'iz qo'zimni? Sening qizing ko'zingga qanday ko'rinsa, mening o'g'lim ham shunday ko'rinadi. Bola bo'lgandan keyin urishaveradi, ertaga yarashaveradi, undayin haddingdan oshib, yuraging toshib, o'zingdan ko'p ketma, “Tanasi – tentak, kallasi – katta kalpang”, deysan, shunday bo'lsa ham, qizingning yori, urishadimi, so'kishadimi – o'zining yori, nima ishing bor? – dedi. Oytug'mish aytdi:

– Ho', Kuntug'mish boybicha, og'zingni borla, mening qizim sening o'g'lingga yor bo'lmaydi. Bu aytgan so'zingga yurmayman, sening kalpang o'g'lingga qizimni bermayman. Tanasi – tentak, kalpang o'g'lingga Oybarchini berguncha daryoga oqizib yuborganim yaxshiroq. Kuntug'mish aytdi:

– Boybicha, bermay hudda qilolmaysan, Oybarchin sening qorningda ekanligi-da mening o'g'limga baxshida edi. Yana Oybarchin yer yuziga tushganda xalq o'rtasida fotiha qilib, to'y qilingan edi-ku, o'zing bilasan-ku, – dedi. Shundan ikkovi bunisi bunday dedi, unisi unday dedi, uning ustidan bir-biri bilan yulishdi, bo'lganicha bo'lishdi, ikkovi o'lguday olishdi.

Dashtdan shu tobda kelib qolgan Boysariga xotining gaplarini eshitib, achchig'li chiqib, Kuntug'mushni bosjhini uib yoradi, biroz muddatdan keyin dashtdan kelgan Boybo'ri Kuntug'mushning haligi ahvolini ko'rib Boysarining eshigi oldiga borib, ikki aka-uka urushib, beti-boshlarini yorib tashlashadi. Bu ko'rgan atrof-boshlari, teng-t'shlari, qavm-qarindoshlari yig'ilishadi, endi bu yurtida qolmasligi aytib, Boysari ularga arz qilib deydi:

Quloq solinglar, qavmi-elim,
Bunday qolmaydi bu ahvolim,
O'z akamdan ko'rib zulm,
Rozi bo'linglar, qavmi-elim,
Men endi bunda turolmayman,
Buytib izza yeb yurmayman,
Yana yuzini ko'rmayman,
O'lsam qizimni bermayman.⁴⁸

Folklorshunos Bahodir Xolmurodov ta'biri bilan aytganda, kuylanayotgan dostonning umumiy ssenariysini, voqealar oqimini, syujet yo'nalishini to'la saqlagan holda misralarni yangicha kombinatsiyalash, aytuvchining o'z g'oyaviy niyatidan kelib chiqib, bir yo ikki so'zni, hatto birgina affiksni o'zgartirish orqali unga yangi ma'no yuklash san'ati hamdir.⁴⁹ Xalq dostonlarida qahramonning jangi, otda safari, unga nasihat, o'zga pahlavonlar bilan

⁴⁸ Alpomish. Doston. Aytuvchilar U.Safarov, M.Avliyoqul o'g'li. Nashrga tayyorlovchilar: T.Mirzayev, J. Eshonqulov. – T.: “Akademnashr”, 20-bet.

⁴⁹ Халқ оғзаки ижодида эпик формула ва баҳшининг ижро маҳорати. Холмуродов. Б. Диссертация, Тошкент, 2017, 16-бет

uchrashgandagi dialoglardan iborat nisbatan barqaror formulalar mavjud. Bunday matnlar baxshining kuchi va iqtidoriga yarasha ushbu variantda ham o'zni bilan qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ilmiy adabiyotlar
2. Алпомиш. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчи Ҳамид Олимжон. Масъул муҳаррир С.Ҳусайн ва Ҳоди Зариф. Тошкент.: Ўздавнашр, 1939.
3. Alpomish. Doston. Aytuvchilar U.Safarov, M.Avliyoqul o'g'li. Nashrga tayyorlovchilar: T.Mirzayev, J. Eshonqulov. – T.: “Akademnashr”, 20-bet
4. Алпамыш, Узбекский эпос по варианту Фазила Юлдаша, перевод Л.Пеньковского, Ташкент, Гориздат УзССР, 1949.
5. К изучению узбекского народново эпоса. Ҳ.Т.Зарифов, Сб. «Вопросы изучения эпоса Ҳ.Т.Зарифов, Сб. «Вопросы изучения эпоса народов СССР». М., Изд-во АН СССР, 1958, стр. 101
6. Мирзаев Т. «Алпомиш» достонининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968. Б-6.
7. Мирзаев. Т. “Алпомиш” достонининг ўзбек вариантлари.. ФАН, 1968. Б-7.
8. Рубсов Н.Н. Символ в искусстве и жизни. Москва., 1991. стр-176
9. Ҳ.Зарифов, Основные мотивы эпоса “Алпамыш”, 6 – 14-бетлар
10. Халқ оғзаки ижодида эпик формула ва баҳшининг ижро маҳорати. Холмуродов. Б. Диссертатсия, Тошкент, 2017, 16-бет